

Uzbekistan Airways Sharm el-Shayxga aviaqatnovlar sonini oshirmoqda

2022 24 Oktabr

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Toshkent – Sharm el-Shayx – Toshkent yoʻnalishi boʻyicha aviaqatnovlar soni oshirilganini maʼlum qiladi. Hozirda Misrdagi kurort shahriga qatnovlar haftada 1 marta – shanba kunlari amalga oshirilayotgan edi. Uzbekistan Airways joriy yilning 23-noyabrdan ushbu xalqaro yoʻnalishda chorshanba kunlari qoʻshimcha qatnovlarni yoʻlga qoʻyadi.

Toshkent – Sharm-el-Shayx yoʻnalishidagi chiptalar narxi 2 396 845 soʻmdan, Toshkent – Sharm-el-Shayx – Toshkent yoʻnalishidagi aviachiptalar narxi esa 4 412 808 soʻmdan boshlanadi.

Narxlar 24.10.2022 holatiga koʻra amal qiladi.

App Store va Google Playʼda «UzAirways» ilovasini yuklab oling va aviachiptalar va qoʻshimcha xizmatlarni ham yanada qulayroq xarid qiling.